

BOZOR IQTISODIYOTI TARAQQIYOTIDA XOTIN-QIZLARNING INNOVATSION TAFAKKURINI OSHIRISHNING MA'NFATLI TOMONLARI

To'yeva Muhayyo Shuhrat qizi

TDPU "Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi

tuyevamuhayyo@gmail.com

m_toyeva@tdpu.uz +998931226699

Annotatsiyasi (Abstract). Bozor iqtisodiyoti sharoitida xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini oshirish, ularni mehnat bozoriga yo'naltirish jamiyatning asosiy bo'g'iniga aylantirish orqali, savodsizlik va kambag'allikni oldini olish.

Аннотация (Реферат). В условиях рыночной экономики повышение инновационного мышления женщин, направление их на рынок труда, превращение в основное звено общества, предупреждение неграмотности и бедности. .

Annotation (Abstract). In a market economy, increasing women's innovative thinking, directing them to the labor market, becoming the main link in society, preventing illiteracy and poverty..

Kalit so'zlar (Key words) Taraqqiyot, innovatsiya, jamiyat, xotin-qizlar, bozor iqtisodiyoti, ilm-fan, ta'lim-tarbiya, raqobatbardosh.

Ключевые слова: Развитие, инновации, общество, женщины, рыночная экономика, наука, образование, конкурентоспособность .

Key words: Development, innovation, society, women, market economy, science, education, competitiveness.

Kirish (Introduction) Bozor iqtisodiyotida ayollarning roli ko'p yillar davomida muhokamalarga sabab bo'lib kelmoqda. Xotin-qizlar so'nggi paytlarda turli sohalarda, jumladan, moliya, texnologiya va tadbirkorlik sohasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Natijada, rahbarlik lavozimlarida va mehnatda ayollar sonining ko'payishi bozor iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayollar hissasi yanada xilma-xil va inklyuziv bozor iqtisodiyotini yaratib, innovatsiyalar, mahsuldorlik va rentabellikni oshirishga olib keldi. Yangi O'zbekistonda bugun bozor iqtisodiyoti ustivor taraqqiyot bosqichi bo'lib turibdi. Davlat ham boshqaruv siyosatida iqtisodiyotga tayanishi tabiiy hol albatta. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Bizning mamlakatimizdagidek boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo'q. Bu merosni chuqur o'rganishimiz, xalqimizga, dunyoga etkaza bilishimiz kerak" [1]

Bozor iqtisodiyoti dunyo miqyosida inson huquq va erkinliklari, ayniqsa, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy muhofazasi bo'yicha nufuzli xalqaro tashkilot, uyushma va harakatlar, anjumanlar faollashuvi bilan izohlanadi. Shuningdek xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirishning bozor iqtisodiyotiga ham ta'siri va taraqqiyoti sezilarli bo'ladi. Masalan, bugungi kunda bozorning qaysi sohaga qaramang unda ayol-qizlarning o'rni bo'lakcha sotuvchilardan to xaridorlargacham.

Buyuk ma'rifatparvar Abdurauf Fitrat aytganlaridek: "Farzandlarimizni yaxshi xulq egalari qilib tarbiyalashimiz uchun avvalo, millat onalari tarbiya va ilm olishlari lozim". Men shu qarashlariga qo'shilgan holda millat onalarini bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh jamiyatga kerakli kadrlar qilib tarbiyalash bugungi kun talabi degan bo'lardim.

BMT Bosh Assambleyasi 2013 yil dekabrda "Taraqqiyot maqsadlaridagi fan, texnika va innovatsiyalar" to'g'risida rezolyusiyani qabul qildi. Ushbu hujjatda barcha sohada gendir tenglikni ta'minlash kafolati sifatida istalgan yoshdagi ayollar va qizlarning fan, texnika va innovatsiyalar yutuqlari rivojidan teng va to'laqonli foydalanish imkoniyati e'tirof etiladi.

Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat barpo etishda xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini oshirish borasida yurtimizda keng ko'lamlı islohatlar amalga oshirilmoqda bulardan, ilm-fan, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi iqtidorli xotin-qizlar va yosh qizlarning huquqlari, iqtidori, innovatsion

kelajagini ta'minlashda O'zbekiston Respublikasi Yangi Konstitusiyasi (2023 yil 30 aprel), "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi, "Ta'lim to'g'risida"gi, "Pedagogning maqomi to'g'risida" gi (01.02.24.O'RQ-901-son) qonunlari muhim ahamiyat kasb etadi.[2]

Yangi O'zbekistonni barpo qilishda xotin-qizlarga zamonaviy bilim bilan birga, ajdodlarimizning madaniy merosini o'rganishlari lozim. Ularni o'rganish va hayotga tatbiq qilish shaxsning ma'naviy barkamolligini ta'minlashda zarur ahamiyat kasb etadi. Xotin-qizlarning innovatsion tafakkurni oshirish tushunchasi keskin raqobat hukm surayotgan hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida jamiyatni barqaror rivojlanishsiz faoliyat yurita olmaydigan hayot tarzi nazarda tutiladi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh jamiyatga munosib tura oladigan aqlu-zakovat, azmu-shijoatli ayol-qizlarni hayotga tayyorlash tushinladi. "Tafakkur" obyektiv voqelikning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi aktiv in'kosi protsessi, insonning fiklash qobiliyati, fiklash tizimini ifoda etuvchi tushuncha hisoblanadi. U o'ylash, fikryuritish, mulohaza bildirish, u yoki bu voqelikni baholash, xullas insonning sub'yektiv qarashlari, faoliyati ifodasidir[3]. Olimlarning ta'kidlashiga ko'ra, "tafakkur uslubi hissiy va aqliy bilimga asoslangan voqelikni vositali inkos etilishidir" [4]

Bozor iqtisodiyoti sharoitida ayol-qizlarimizning innovatsion tafakkurni oshirish uchun odatiy turmush tarzidan chetga chiqish va ayol-qizlarimizning dunyoqarashini kengaytirishimiz zarur. Xotin-qizlarning siyosiy faolligini va iqtisodiy barqarorligini oshirish, ularning jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq salbiy qarashlarni o'zgartirishni ta'qazo etadi. Innovatsion tafakkur-bu g'oyalarning integratsiyalashuvi, muammo yechimi va kashfiyot deb oladigan bo'lsak, innovatsiya- jamiyatdagi yechimalgan masala muammo ko'rinishiga kelib qolgan, vaqtida e'tibor qaratilmagan, hozirda yordamga muhtoj g'oyalar hisoblanadi.

Literature review

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yil 22 dekabrda 70-sessiyasida 11 fevral "Ilm-fan sohasidagi ayollar va qizlar xalqaro kuni". 1999 yildagi 54/120 sonli Rezolyusiyasiga binoan har yili 12 avgustda "Xalqaro yoshlar kuni" 2011 yildagi Rezolyusiyasi asosida 2012 yildan "Xalqaro qizlar kuni" munosabati bilan esa butun dunyoda mamlakatimiz taraqqiyoti taqdirini yaratuvchi xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, ezgu maqsadlarini qo'llab-quvvatlash borasida xalqaro miqiyosda tadbirlar o'tkazilmoqda.

Ayollarning bozor iqtisodiyotiga ta'sir qilish usullaridan biri ularning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanayotganliklarining o'zi ham, bu bizning yutuqlarimizdan biridir. 2019 yil 19 iyuldagi "Oliy malakali ilmiy va ilmiy -pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to'g'risida"[5] 606-son qaroriga muvofiq 2020 yildan Oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tartibi joriy etishning o'ziyiq ayollarga ko'rstilyotgan e'tiborning isbotidir. 2020 yilning yanvar oyidan boshlab stajyor-tadqiqotchilik instituti faoliyati yo'lga qo'yilganligi ilmiy iqtidorli xotin-qizlar uchun ham katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi.

Prezidentimiz olg'a surgan g'oyalar asosida Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 8-avgustdagi 437-son qaroriga binoan Respublika "Olimalar" jamiyati, "Oqila ayollar" [5] harakati tashkil etilganligi ushbu toifa xotin-qizlar uchun motivasiya berdi. Davlatimiz rahbari ta'biri bilan aytganda: "Bu imkoniyat hali bizning tariximizda umuman bo'lmagan".

Bozor iqtisodiyotining xotin-qizlar innovatsion tafakkurining oshirishda ayollarning tadbirkorlik faoliyati bilan shug'illanib, tadbirkor ayollar sonining ortishi turli omillar, jumladan, kapitaldan foydalanish, murabbiylik va tarmoq imkoniyatlari bilan bog'liq. Tadbirkor ayollar bozorga innovatsion va muoffaqiyatli yaratishga olib kelgan noyob istiqbolni olib kelishdi.

O'zbekistonda K.U.Najmiddinova, S.X.Safayeva, E.Sultonova, S.S.Hoyimova, T.E.Egamberdiyev [10]larning dissertatsiya tadqiqotlarida jamiyat hayotida erkak va ayolning ijtimoiy-siyosiy teng huquqliligi, davlat boshqaruvida ayollarning ishtirokini ta'minlashga oid muammolar tadqiq etilgan.

Research Methodology

Bizning maqsadimiz bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlarning innovatsion tafakkurini oshirish haqida o'ylasak ham, sharqda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, ayollarga hurmat, tenglik deyilganda, G'arbdagi kabi «ayollar barcha ishni qilishlari mumkin» deb

tushunish, ichkilikbozlik qilish, erkaklari tikuvchilik bilan, ayollari esa konlarda og‘ir mehnat bilan shug‘ullanishiga yo‘l qo‘yadigan jamiyat ko‘zda tutilmaydi, aksincha, ularni jismoniy zo‘riqishdan, og‘ir ishlar bilan tahqirlash va kamsitishlardan xoli boqimandalik kayfiyatidan uzoq, o‘z aqli-zakovatiga ega, vatanini sevadigan, ertangi kuniga va oldiga qo‘ygan maqsadlariga dadil ishonch bilan shaxdam qadamlarda ildam borayotgan ayollar nazarda tutilgan.

Raqobatbardosh jamiyatda ayol-qizlarning ilm olishlari va kariyera qilishlari uchun mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida xotin-qizlarning nufuzini aniqlash, ularning jamiyatdagi ijtimoiy sohada faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni shakllantirish uchun tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida tadqiqot davomida turli saytlarda ijtimoiy so‘rovnomalarni olib borishimiz darkor.

Bozor iqtisodiyotining taraqqiyoti qonuniyatlari va uning xotin-qizlarning bandlik siyosatini ta‘minlash orqali raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlarning tadbirkorlik hamda biznes-ledi toifalarining islohotlardagi iqtisodiy ulushining dinamikasini tadqiq etish, jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faollashuvi tahlillariga tayanib, oila va nikoh munosabatlarida ayollarga nisbatan diskriminatsiya hamda zo‘ravonlikning determinantini ilmiy yoritib berish, “xotin-qizlarning faolligi”, “xotin-qizlar ish kuchi”, “ayollar tadbirkorligi” kategoriyalarini aniqlash asosida ayollar mehnati samaradorligining raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlar innovatsion tafakkurini mezon va ko‘rsatkichlarini asoslash lozimligini ko‘rsatadi. Amerikalik sotsiolog T. Parkinsonning fikricha, chinakam shaxsiy qadr-qimmat shaxsning o‘rab turuvchi muhit bilan munosabati, tashqi olamga reaksiyasi, ya‘ni uning faolligida ifodalanadi[11]. Raqobatbardosh jamiyat ayol-qizlarimizdan chinakam shuddat va kuchli mehnat talab etadi.

Analysis and results

Dono xalqimiz orasida «Ayol bir qo‘li bilan beshikni, ikkinchi qo‘li bilan dunyoni tebratadi», degan naql bejiz vujudga kelmagan. Bozor iqtisodiyoti taraqqiyotida raqobatbardosh jamiyatda bugun ayol-qizlarimizdan aynan shunday faollikni talab etmoqda. Buyuk ajdodlarimiz, millatimiz tarixidan ma‘lumki, o‘zbek ayoli, o‘zbek onalari nafaqat o‘z elimiz, balki dunyo hamjamiyati, umumbashariyat taraqqiyotiga o‘zining ulkan hissasini qo‘shgan mashhur o‘g‘lonlari – yengilmas Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi sarkardalari, Bahouddin Naqshband, Abduholiq G‘ijduvoni, hazrat Xo‘ja Ahror Vali kabi azizu-avliyolari, jahonni turli jabhalarda lol qoldirgan olimlari – Abu Nasr Farobiy, Abu Rayxon Beruniy, Imom Al Buxoriy, Abu Ali ibn Sino, Al Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek, adiblari – Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Umar Hayyom, Fitrat, Cho‘lpon, Abdulla Qahhor, Oybek kabilar bilan mashhurdir. Mag‘rur, jasur va dono To‘maris, Bibixonim, Nodirabegim, Uvaysiylar nomlari nafaqat biz uchun, balki bugun hayotga kirib kelayotgan innovatsion tafakkuri yuqori ayol qizlarimiz uchun ham o‘rganishga arziydigan tarixiy shaxslar hisoblanadi.

Jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko‘rsatgan, o‘zining innovatsion g‘oyalari va o‘zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo‘shgan xotin-qizlarga beriladigan "Mo‘tabar ayol" ko‘krak nishoni tassis etilishi ham yurtimizdagi ayol-qizlarning shijoatiga kuch-quvvat bag‘ishlasa ajab emas.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayol qizalarimizning faolliklari oshib borishi bilan davlat va jamiyat boshqaruvi ishiga faol jalb etilib, Oliy Majlis va Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyat tizimida ham o‘ta mas‘uliyat talab etadigan lavozimlarda faoliyat olib borishiligi bilan oila va nikoh munosabatlaridan “begonalashuvi” ro‘y berishi mumkinligi ijtimoiy-siyosiy jihatdan raqobatbardoshlik talab etiladigan va ayni vaqtda qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bo‘lgan muhim ijtimoiy-falsafiy xususiyatdir. Yangi O‘zbekistonda uyg‘onish davri, avvalo, raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlar ilm-fanning taraqqiyotiga, milliy ma‘naviyatning mustahkamligiga bog‘liqdir. Mazkur o‘tkir haqiqatni chuqur his qilgan holda xotin-qizlarning innovatsion ta‘limi va ilm-fan bilan shug‘ullanishlari uchun davlatimiz tomonidan yangi imkoniyatlar yaratib berilmoqda.

Conclusion/Recommendations

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlarning innovatsion tafakkuri ijtimoiy faolligi o‘ziga xos milliy, diniy, tarixiy shakllangan mental xususiyatga ega bo‘lib, u uzoq vaqt

yoki davrni talab etadi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi xalqaro va milliy norma va mezonlarda ayollarning huquqiy manfaatlarini shakllantirish orqali ijtimoiy-siyosiy faolligini ta'minlanadi. Bu masala bir kunlik kompaniyavozlik aholi orasida norozilikni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh jamiyatda xotin-qizlar innovatsion tafakkurini oshirish va ijtimoiy-siyosiy faolliklari fanlararo tadqiqot predmeti bo'lib, shaxsning ijtimoiy hayotga obyektiv voqelikka qat'iy munosabati, ruhiy holati, o'z manfaatlari doirasida umumiy qabul qilingan me'yoriy axloqidir. Ijtimoiy-siyosiy faollik moddiy dunyodan shaxsning o'z manfaatlarini qondirishda alohida va jamoaviy hamkorligi, birgalikning ijtimoiy haraktchanligi va tashabbuskorini nazarda tutadi. Shu bois, ijtimoiy siyosiy faollik inson hayotning barcha sohalariga tashqi olamga ta'sirning yuqori emosional shaklidir. Bozor iqtisodiyoti taraqqiyotida xotin-qizlar tadbirkorlik va ularning mehnatdagi ishtiroki orqali bozor iqtisodiyotiga salmoqli hissa qo'shadilar. Rahbarlik lavozimlariga va ishchi kuchiga ko'proq ayollarni jalb qilinishi yanada xilma-xil va inklyuziv iqtisodiy bozorni yaratadi, natijada innovatsiyalar, mahsuldorlik va rentabellik ortdi.

References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev: mamlakatimizdagi boy tarix, bobolarimizdek buyuk allomalar hech qaerda yo'q // "Xalq so'zi" gazetasi. 2018 yil 21 dekabr soni.[1]
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi yangi tahriri 2023 yil 30 aprel.
3. (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023 y., 03/23/837/0241-son).[2]
4. O'zbek tilining izohli lug'ati 4 jild. Toshkent; O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.13-b
5. Berdiyev N. Falsafa erkin ijoddir Tafakkur, 2018, 3 son 31-32 b
6. O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 29 oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-son Qonuni.
7. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ 637-son Qonuni.
8. O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 7-martdagi "Oila va xotin qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-87-son Farmoni.
11. Najmiddinova K.U. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy-axloqiy madaniyatning o'rni. Fals. fan. nomz. dis... avtoref. – Toshkent, 2006. – 23 b.; Safaeva S. X. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar. Fals. fan. nomz. dis... avtoref. – Toshkent, 2002. – 20 b.; Sultonova E. Ayol davlatning rivojlanish strategiyasida. Siyos. fan. dok. dis... avtoref. – Toshkent, 2005. – 34 b.; Shoyimova S.A. Tadbirkor o'zbek ayollari shaxsining ijtimoiy-psixologik xususiyati. Psix. fan. nomz. dis... avtoref. – Toshkent, 2009. – 24 b.; Egamberdiev E. O'zbekiston Respublikasi ma'naviy hayotida ayollar faolligini oshirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. Ped. fan. dok. dis... avtoref. – Toshkent, 2005. – 38 b.
12. 11. Паркинсон Т. Аксиологическая трактовка активности женщин. –М.: Юрист. 2012. — 46-b